



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University


4/2024

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu\_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

4/2024

## BADIIY DISKURS TARJIMASIDA KOMMUNIKATIV-FUNKSIONAL YONDASHUV

*Qodirova Holida Xayriddin qizi,  
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi  
kholidakodirova@gmail.com*

**Annotatsiya.** Hozirgi vaqtda diskurs tarjimasida an'anaviy (lingvistik) yondashuvdan ko'ra kommunikativ-funksional yondashuvni afzal ko'rish tavsiya etiladi, sababi u bizga tarjimonning barcha faoliyatini, muloqot shartlari va maqsadini to'liq hisobga olgan holda qamrab olish imkonini beradi. Kommunikativ-funksional yondashuvning mohiyati shundaki, ikki xil tilda axborot almashishda tarjimon uzatilayotgan xabarning asosiy ma'lumotlarini tushunishga imkon yaratishi va ikki tilli muloqot holatida tarjima maqsadiga erishishganligiga amin bo'lishi muhimdir.

**Kalit so'zlar:** badiiy diskurs, tarjima metodlari, kommunikativ-funksional yondashuv, ekvivalentlik, lingvistik nazariya, nutq aktlari.

## КОММУНИКАТИВНО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ ПОДХОД ПРИ ПЕРЕВОДЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ДИСКУРСА

**Аннотация.** В настоящее время при переводе дискурса рекомендуется отдавать предпочтение коммуникативно-функциональному подходу традиционному (лингвистическому), поскольку он позволяет охватить всю деятельность переводчика с учётом условий и цели общения. Суть коммуникативно-функционального подхода состоит в том, что при обмене информацией на двух разных языках переводчику важно дать возможность понять основную информацию передаваемого сообщения и быть уверенным, что цель перевода достигнута в случае двуязычного общения.

**Ключевые слова:** художественный дискурс, методы перевода, коммуникативно-функциональный подход, эквивалентность, лингвистическая теория, речевые акты.

## COMMUNICATIVE-FUNCTIONAL APPROACH IN TRANSLATING LITERARY DISCOURSE

**Abstract.** At present, it is recommended to prefer the communicative-functional approach to the traditional (linguistic) approach in discourse translation, because it allows us to cover all activities of the translator, taking into account the conditions and purpose of communication. The essence of the communicative-functional approach is that when exchanging information in two different languages, it is important for the translator to make it possible to understand the main information of the transmitted message and to be sure that the goal of translation has been achieved in the case of bilingual communication.

**Keywords:** artistic discourse, translation methods, communicative-functional approach, equivalence, linguistic theory, speech acts.

**Kirish.** Tarjima til to'siqlarini yengib o'tish va madaniy tafovutlarni bartaraf etish uchun xizmat qiluvchi madaniyatlararo kommunikativ harakat hisoblanadi. Tarjima manba matnni ko'zlangan tildagi matnga o'girish orqali har ikki til madaniyatni tushunishga imkon beradi va shu bilan madaniyatlararo muloqotni osonlashtiradi. Shu bilan birga, tillar orasidagi almashinuv jarayoni tarjimon tomonidan tarjimaning maqsadi, tarjima til adresatlari va janr konventsionalari yoki g'oyaviy mulohazalar kabi boshqa omillar bilan bog'liq ravishda nisbatan amalga oshirilgan kamchiliklar, qo'shimchalar, tarkibiy almashinuvlar va boshqa bir qator o'zgarishlar bilan ham xarakterlanadi. Tarjimaning madaniyatlararo muloqotni yengillashtirishdagi ahamiyati tufayli, tarjima tarjimashunoslik deb nomlanuvchi mustaqil akademik fan sifatida o'rganila boshlandi. Tarjimada esa tasviriylik va tabiiylikning o'rini boshqa hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Tarjima badiiy va lug'at faoliyatining maxsus turi. Tarjima badiiy, ilmiy ijod kabi til, tafakkur va fantaziya bilan ish ko'radi. Tarjima nazariyasi tarjimaning keng jonli amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan qarashlar, nuqtai nazarlar, kuzatishlar, rangbarang tajribalami ilmiy-tanqidiy o'rganadi, tarjima qoidalari va tamoyillarini, ularning chegaralari, me'yorlarini bayon qiladi [4, 20-22].

**Asosiy qism.** Tarjima kommunikativ faoliyat sifatida tarjima matni konteksti va o'zining bilimlarini hisobga olgan holda tilmoch tomonidan amalga oshirilgan interpretatsiyani qamrab oladi. I.Meysen tarjima kommunikativ akt ekanligini va u ham asl, ham tarjima matnlarni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. D.Sperber va D.Vilsonning esa muloqotda yetkazilgan axborot adresatga tegishli degan tushunchani o'z ichiga oladi, degan fikrda, chunki muloqotda e'tibor faqat biz uchun tegishli bo'lgan tafsilotga qaratiladi [10, 177-182]. Tarjimachilik nazariyasining vujudga kelishi va uning universal qoidalarining ishlanishi ijodiy tarjima amaliyotiga keskin va ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XX asrning o'rtalaridagiga nisbatan olganda ham, tarjimalarning sifati va saviyasi sezilarli darajada ko'tarildi. Tarjimada savodsizlik, taglama (подстрочник) tarjimalardan foydalangan holda tarjima qilish, vositali tillar orqali tarjima qilish ancha kamaydi. Asliyat va tarjima tilining butun qirralari va nozikliklari, bir-birlariga qay darajada mos va muvofiq ekanliklari, ziddiyatli, murakkab tomonlarini qiyosan mukammal bilish hozirgi zamonda tarjimaning eng birinchi shartlaridan ekanligi hamma yerda tan olindi.

Tarjimashunoslikning alohida bir fan sifatidagi taraqqiyotining ikkita o'ziga xos bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin. Fan rivojining dastlabki bosqichida, 1950-1970-yillarda tarjimashunos olimlar o'z e'tiborini tarjima jarayonida "to'qnash keladigan" ikki til o'rtasidagi farqlarga qaratdilar. Tarjima asl matni (source text) tarjima matnga (target text) o'girish sifatida qaralganligi sababli, tillarning leksik va grammatik tizimlari o'rtasidagi nomutanosibliklar asosiy muammolarni keltirib chiqaradi va shu sababli tadqiqotchilar bir matnni boshqa matnga o'girish yo'lidagi sof lingvistik to'siqlarni yengib o'tishning eng mos yo'l va vositalarni topishga e'tibor qaratdilar. Bu say- harakatlar biz bugungi kunda "transformatsiyalar" deb ataydigan bir necha klassifikatsiyalarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Transformatsiyalar tarjimon tomonidan asl matn manbalarining tarjima matni ustida bajariladigan faoliyat sifatida taqdim etiladi va tarjimonga tillar o'rtasidagi mutanosibliklarning yo'qligini bartaraf etishga yordam berishni maqsad qiladi. Tarjimashunoslik sohasidagi "matnga asoslangan" (text-focused) yondashuv deb ataladigan bu yo'nalish ancha eskirdi va uning eng muhim xususiyatlardan biri bu tarjima jarayoni va uning mahsuliga ta'sir etuvchi ekstralingvistik omillarga e'tibor qilinmaydi. Bugungi kundagi tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, matnga asoslangan yondashuv tarjimaning inson faoliyatining bir shakli sifatidagi ichki mohiyatini ochib berish vazifasini bajarish uchun yetarli emasdek tuyuladi. Agar asliyat matni o'zi yuzaga kelgan voqealangan muhitdan ayro tarzda mustaqil va o'z-o'zini ta'minlaydigan birlik sifatida tushunilsa, tarjimashunoslik tarjima jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan va o'z kasbiy faoliyati natijalari uchun javobgarlikni his qiladigan har qanday tarjimon tomonidan hisobga olinishi lozim bo'lgan ham til doirasidagi, ham tildan tashqari omillar majmuasini ochib bera olmaydi. Matnni har qanday muayyan muhitdan ayro tarjima qilganda, tarjimonlar matnni qabul qiluvchilarning ehtiyojlarini va tarjima maqsadini e'tiborsiz qoldiradilar.

**Tadqiqot metodi.** Tarjima jarayonini tahlil qilish davomida tadqiqotchilar (birinchi navbatda tarjimonlarning o'zlari) hamkasblari amal qilishi kerak bo'lgan tarjima tamoyillari va tavsiyalarini ishlab chiqdilar. Biroq tarjimonlarning tarjima, tarjimoni baholash tamoyillari va mezonlari haqidagi bunday bayonotlari tarjimaning izchil nazariyasini tashkil eta olmadi. Lingvistik manbalarga asoslangan tarjima nazariyasining o'ziga xos yondashuvi faqat XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. Ushbu davrga kelib tarjima faoliyatining sezilarli kengayishi va xalqaro aloqalarning keskin rivojlanishi tarjimada lingvistik nazariyaning shakllanishiga turtki bo'ldi. Xalqaro aloqalar faqatgina milliy adabiyotlar o'rtasidagi gumanitar sohadagina emas, balki badiiy tarjimadan tashqari ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy sohalarda ham amalga oshirildi, bu esa o'z navbatida maxsus hamkorlikning ahamiyatini belgilab berdi.

Tarjimaning lingvistik o'ziga xosligini/ asoslarini anglashda R.Yakobson tomonidan nashr etilgan "Tarjimaning lisoniy xususiyatlari/ aspektlari" nomli maqolasi muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada olim tilshunoslikning boshqa sohalarida ham tarjimaning muhim nazariy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, o'zgarish ma'noni saqlab qolgan holda gapning deyarli har qanday o'zgarishi tarjima ekanligini ta'kidlaydi va til ichidagi tarjima, tillararo tarjima va intersemiotik tarjimoni farqlashni taklif qilib, bunda bir belgi tizimi boshqasiga aylanishi haqidagi o'z qarashlarini ilgari suradi [5, 55]

Tarjima nazariyasi rivojining keying bosqichlarida amerikalik tilshunos olim Y.A.Naydani (Nida E.) ham e'tirof etmaslikning iloji yo'q. Y.Naida uchun tarjima muammolari, eng avvalo, tarjimonning asl matn mazmunini talqin qilishi va tarjima retseptorining tarjima matn mazmunini talqin qilishi bilan bog'liq semantik muammolardir. Olim "dinamik ekvivalentlik" tushunchasini kiritdi, bunga erishish uchun tarjimon asl nusxaning rasmiy xususiyatlariga emas, balki tarjimoni qabul qiluvchilarining reaksiyasiga, matnning maksimal ravshanligi va tabiiyligiga, tarjima til me'yorlariga rioya qilishga e'tibor qaratishi kerak ekanligini taklif etdi.

Shunga bog'liq ravishda, J. Ketford o'zining "Tarjimaning lingvistik muammolari" nomli asarida tarjima nazariyasining markaziy muammosi ekvivalentlik masalasi, ya'ni asl nusxadagi va tarjimadagi o'zaro

bog'liq gaplar orasidagi semantik o'xshashlik darajasini ochib berish, deb hisoblaydi. Bu vazifani haqiqatda tugallangan tarjimalarni asl nusxalari bilan solishtirish orqali hal qilish kerak. Muallifning ta'kidlashicha, tarjima jarayonida asl birliklarning ma'nolarini ko'chirish yoki takrorlash sodir bo'lmaydi, faqat bir tildagi ma'nolarni boshqa tildagi ma'nolar bilan almashtirish amalga oshiriladi.

**Muhokama.** Y.Naida g'oyalari tarjimaga kommunikativ-funksional yondashuv asoslarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatdi. Tarjimaning vazifasi, Y.Naidaning fikricha, tarjima tilda asl matnga "eng yaqin tabiiy ekvivalent" (the closest natural equivalent) ni yaratishdir va eng katta yaqinlik, o'z navbatida, tarjima qabul qiluvchilari va asl retseptorlari reaksiyasining tengligi bilan belgilanadi. Y.Naida g'oyalarining muhim jihati tarjima o'quvchisining ikki tilli muloqot jarayonida ishtirok etishi, muallifning axborotni qabul qiluvchi tomonidan tushunish darajasini hisobga olishda aks etadi. Y.Naida bilan bir qatorda Leyptsig maktabi olimlari, birinchi navbatda, O. Kade, A. Noyber va G. Jaeger kommunikativ-funksional yondashuvning rivojiga katta hissa qo'shdilar. V.N.Komissarov yozganidek, "Leyptsig maktabi tadqiqotchilari boshidanoq muloqotning barcha ishtirokchilari va unga ta'sir etuvchi ham lingvistik va ekstralingvistik" barcha omillar bilan birgalikda tarjima faoliyatini tillararo muloqotning eng muhim qismi deb hisoblashgan. Nemis tilshunosi Otto Kadening asarlarida tarjima matnining muayyan kommunikativ vaziyatdagi murakkab ta'sirini baholash alohida ta'kidlangan.

Muloqotning ustuvorligini tan olgan O.Kade tarjimaning asl nusxaning makro belgisiga ham e'tibor qaratishini ta'kidlab, makrobelgidagi barcha o'zgarishlar ikki tilli muloqot talablari bilan qat'iy belgilanishi kerakligini ta'kidladi. Boshqacha qilib aytganda, matndagi har bir o'zgarish (uning shakli va shunga mos ravishda semantikasi) ekvivalent aloqani yaratish zarurati bilan asoslanishi va shuning uchun tarjimani qabul qiluvchiga bir xil ma'noni yetkazishi kerak. O. Kade, ko'rib turganimizdek, tarjimani qabul qiluvchiga qat'iy belgilangan ta'sirni ta'minlash zarurligi haqida gapirmaydi, balki tarjima harakatining qabul qiluvchiga qaratilganligi uning kontseptsiyasining muhim tarkibiy qismidir. Tarjimaning pragmatik jihatlarini o'rganish boshqa nemis tarjimashunos olimi Albrext Noyberning eng muhim yutuqlaridan biridir. Shuni e'tirof etish kerakki, A. Noyber asarlarida aynan tarjimaga kommunikativ-funksional yondashuv namoyon bo'lib, tarjimaning lingvistik nazariyasini yanada rivojlantirish nuqtai nazaridan ularning ahamiyatini belgilab berdi. Boshqa bir nemis tilshunos olimi G.Yagerning olib borgan tadqiqotlari kommunikativ-funksional yondashuvni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. U tarjima asl nusxaga kommunikativ jihatdan ekvivalent bo'lishi kerak degan qarashlarni ilgari suradi. Bundan kelib chiqadiki, har ikkala matn ham teng kommunikativ ahamiyatga ega bo'lmog'i darkor, va bu matn orqali muloqot ishtirokchilari ongida uyg'otiladigan ruhiy tasvir sifatida tushuniladi.

Rus tilshunosligida kommunikativ-funksional yondashuv tushunchasi birinchi marta Z.D.Lvovskayaning tadqiqotlarida namoyon bo'ldi. Olimning so'zlariga ko'ra, tarjimaning lingvistik nazariyasi tarafdorlari odatda "nutq faoliyatining umumiy naqshlarini, xususan, tarjima jarayonida lingvistik va ekstralingvistik omillarning o'zaro ta'sirini kam baholaydilar" [8, 220] Shunday qilib, muallifning fikricha, tarjima jarayoni faqat chet tilidagi matnni tarjima til matniga qayta kodlash, ko'pincha lingvistik ekvivalentlik atamalaridan, ya'ni lingvistik ma'nolar darajasida qayta kodlash sifatida nohaq ta'riflanadi. Kommunikativ-funksional yondashuv tarafdorlari ikki tilli muloqotning butun harakatini hisobga olishga harakat qiladilar va bu yondashuvda tarjimon faoliyati o'zi ham tarjima jarayonining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi [7,132]. Muallifning kommunikativ niyati bo'lgan asl matnining asosiy g'oyasini faqat ma'lum bir nutq vaziyatiga mos keladigan ekstralingvistik omillarni hisobga olgan holda adekvat baholash va tushunish mumkin. Z.D.Lvovskaya tarjima jarayonini yanada chuqurroq o'rganib, tarjima transformatsiyalari nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik sharoitlar bilan ham asoslanadi degan xulosaga keldi [1,55].

O'z asarlarida Z.D. Lvovskaya tarjima jarayonining modelini ochib berishga harakat qiladi va uning fikricha, bu jarayon bir necha bosqichlardan iborat. Og'zaki o'zaro ta'sirning dastlabki bosqichida kommunikativning ongida muloqotning motivi va maqsadi, ya'ni axborotning asosiy kommunikativ vazifasi shakllanadi. Keyin, uni amalga oshirish uchun ma'nosi qabul qiluvchi tomonidan talqin qilinishi lozim bo'lgan lingvistik vositalar tanlanib matn yaratiladi. Ikki tilli muloqotda tarjimon vositachi bo'lib (интерпретатором) bo'lib, olingan axborotni kommunikativ vaziyat sharoitlari bilan birgalikda tahlil qiladi, lingvistik va ekstralingvistik omillarning o'zaro ta'siri natijasida xabarning asosiy g'oyasini yuzaga chiqaradi. Bunday holda, kommunikativ vaziyatning shartlari muhim rol o'ynaydi, sababi uni hisobga olmasdan, tarjima matnni to'g'ri qurishning imkoni bo'lmaydi. "Muloqot holati to'g'risidagi ma'lumotlar nafaqat matnning ma'nosini, balki kerak bo'lganda lingvistik ma'nolarni ham yangilashga yordam beradi" [7,93]. Keyingi o'rinda tarjimon tarjima tilda aslyat tildagi matn bilan bir xil ma'noga ega bo'lgan matnni yaratadi. Yakuniy bosqich esa kommunikativ vaziyat shartlarini hisobga olgan holda tarjima oluvchining tarjima

matning semantik mazmunini talqin qilishini o'zida mujassam etadi. Shunday qilib, Z.D. Lvovskaya tarjimaga kommunikativ-funksional yondashuvning asosiy tamoyillarini ochib bera oldi.

G.Hatim va M.Meysonning ta'kidlaganidek, pragmatik qoidalar buzilishiga yo'l qo'yilsa, ko'pincha noaniqliklar yuzaga keladi va bu esa tarjima jarayonida tushunmovchilik va kelishmovchiliklarga olib keladi. So'zlar semantik jihatdan ma'lum bir ma'noni anglatishi mumkin, ammo pragmatik nuqtai nazardan umuman boshqa narsani ifodalanishiga olib kelishi ham mumkin. G.Hatim va M.Meyson pragmatik ma'no tarjimonga niyat (ko'zda tutilgan ma'no) haqida tushuncha berishini tasdiqlaydi.

Ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga tegishli bo'lganligi sababli tarjimada turli farqlar yuzaga keladi. Tillar qardoshligi jihatdan qanchalik farqli bo'lsa, shunchalik tafovut ham ko'proq bo'ladi. Avvalo, o'zbek va ingliz tillari nutq aktlarini voqealanishi yuzasidan turlicha strukturaga ega va bu tarjimaning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilida nutq aktlari grammatik vositalar orqali ko'pincha bilvosita voqealanadi. Shuningdek, performative fe'llar orqali ham voqealanadi. O'zbek tilida esa performative fe'llar eksplitsit tarzda voqealanmaydi va bu tarjimada muammolarga sabab bo'ladi.

Nutqiy bayonotlar, ayniqsa, tarjima jarayonida bir nutqiy aktdan boshqa turdagi nutq aktiga o'zgarib qolishi mumkin. Bunday vaziyatda tarjimaning kommunikativ-funksional yondashuvi ikki til orasidagi tafovutlarni qisqartiruvchi va muqobil muloqotni ta'minlovchi ko'prik vazifasini o'taydi. Shu sababli ham tarjimon ma'lum bir tarjimani amalga oshirishdan oldin o'zi tarjima qilayotgan matnning kommunikativ vazifasi qanday aks ettirilishini yaxshi anglamog'i lozim.

**Xulosa.** Hozirgi vaqtda diskurs tarjimasida an'anaviy (lingvistik) yondashuvdan ko'ra kommunikativ-funksional yondashuvni afzal ko'rish tavsiya etiladi, sababi u bizga tarjimonning barcha faoliyatini, muloqot shartlari va maqsadini to'liq hisobga olgan holda qamrab olish imkonini beradi. Kommunikativ-funksional yondashuvning mohiyati shundaki, ikki xil tilda axborot almashishda tarjimon uzatilayotgan xabarning asosiy ma'lumotlarini tushunishga imkon yaratishi va ikki tilli muloqot holatida tarjima maqsadiga erishishganligiga amin bo'lishi muhimdir. Butun boshli matnni so'zma-so'z tarjima qilish shart emas, asliyat matning asosiy g'oyasini qabul qiluvchiga matnning asl mazmunining maqsadini buzmasdan, asl matnning va tarjima matnning ko'zlangan auditoriyasini va ular orasidagi nomutanosibliklarni hisobga olgan holda yetkazish muhim hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, tarjimaga kommunikativ-funksional yondashuv "ekvivalentlik" va "adekvatlik" kabi asosiy tarjima tushunchalarini belgilashda terminologik qiyinchiliklarni eng mantiqiy ravishda yo'q qiladi.

### ADABIYOTLAR:

1. А.Е. Ивлева, А.А. Лисякова. *Коммуникативно-функциональный подход к переводу в России: постановка проблемы, Вестник ПНИПУ. Проблемы языкознания и педагогики № 4 2020, с-55 // Язык. Словесность. Культура. 2015. № 2. С. 9-31. Ташкент, 2001.-39 с.*
2. Catford J. C. *A Linguistic Theory of Translation. London, 1965*
3. Filippova O.V. *K voprosu o klassifikatsii razlichnix sredstv virajeniya iskajeniya*
4. I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarovb 2012. *Tarjima nazariyasi o 'quv qo'llanma, «Tafakkur Bo'stoni» Toshkent – 2012,*
5. Jakobson R. *On Linguistic Aspects of Translation // On Translation /Ed. R. A. Brower. Cambridge (Mass.), 1959.*
6. Kodirova Kholida Khayriddin kizi. (2022). *The Analysis of Illocutionary Acts in Adventures of Tom Sawyer by Mark Twain. Miasto Przyszłości, 28, 324–328.* <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/648>
7. Львовская З.Д. *Теоретические проблемы перевода. (На материале испанского языка). – М.: Высшая школа, 1985. – 232 с.*
8. Львовская З.Д. *Современные проблемы перевода. – М.: УРСС, 2007. – 220 с.*
9. Marsili, N. (2016). *Lying by Promising: A Study on Insincere Illocutionary Acts. International Review of Pragmatics, 8(2), 271-313.*
10. Mason, I. (1998). *Discourse connectives, ellipsis and markedness. In L. Hickey (ed.), The pragmatics of translation (pp. 170-184). Clevedon: Multilingual Matters Ltd*
11. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). *Categorization in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 28, 351–356.* <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/653>
12. Van Elswyk, P. *Deceiving without answering. Philos Stud 177, 1157–1173 (2020).*
13. Wilson, D. & Sperber, D. (1988). *Representation and relevance. In R. M. Kempson (ed.), Mental representations: The interface between language and reality (pp. 133-153). Cambridge: Cambridge University Press.*